



UDK:378.147:81'243

Utkir MURADOV,
Dotsent, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti
E-mail: utkurnurillayevich@gmail.com

PhD, dotsent U.Jabbarov taqrizi asosida

METHODICAL POSSIBILITIES OF INCREASING STUDENTS' COMMUNICATIVE ACTIVITY THROUGH POLYLOGICAL SPEECH

Annotation

This article analyzes the methodological possibilities of increasing students' communicative activity through polylogical speech in higher education. The study focuses on organizing multi-participant communication in foreign language classes and developing students' ability to listen, question, argue, clarify and defend their position. Analytical, comparative and modelling methods were used to synthesize views on communicative competence, dialogic pedagogy, collaborative learning, project-based speaking tasks and digital tools. Practical recommendations and assessment criteria are offered for applying debates, the "Aquarium" method, case studies, project work and digital platforms in developing oral communicative competence.

Key words: polylogical speech, communicative activity, communicative competence, student-centered learning, dialogic pedagogy, collaborative learning, interactive methods, foreign language teaching methodology, oral speech, classroom communication.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПОЛИЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация

В статье анализируются методические возможности повышения коммуникативной активности студентов посредством полилогической речи в высшем образовании. Основное внимание уделяется организации многосубъектного общения на занятиях иностранного языка и развитию умений слушать, задавать вопросы, аргументировать, уточнять и отстаивать собственную позицию. Исследование основано на аналитическом, сравнительном и моделирующем методах; обобщены подходы к коммуникативной компетенции, диалогической педагогике, совместному обучению, проектной речевой деятельности и цифровым инструментам. Предлагаются практические рекомендации и критерии оценивания для применения дебатов, метода «Аквариум», кейс-стади, проектной работы и цифровых платформ.

Ключевые слова: полилогическая речь, коммуникативная активность, коммуникативная компетенция, студентоцентрированное обучение, диалогическая педагогика, совместное обучение, интерактивные методы, методика преподавания иностранного языка, устная речь, аудиторная коммуникация.

POLILOGIK NUTQ ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV FAOLLIGINI OSHIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida polilogik nutq orqali talabalarning kommunikativ faolligini oshirishning metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida xorijiy til darslarida ko'p ishtirokchidan iborat muloqotni tashkil etish, talabalarni passiv tinglovchidan faol nutqiy faoliyat ishtirokchisiga aylantirish hamda tinglash, savol berish, dalillash va o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari turadi. Tadqiqotda analitik, qiyosiy, umumlashtirish va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Maqolada kommunikativ kompetensiya, dialogik pedagogika, hamkorlikka asoslangan o'qitish, loyihaviy og'zaki nutq faoliyati va raqamli vositalar haqidagi ilmiy-metodik qarashlar umumlashtirildi.

Kalit so'zlar: polilogik nutq, kommunikativ faollik, kommunikativ kompetensiya, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, dialogik pedagogika, hamkorlikka asoslangan o'qitish, interfaol metodlar, xorijiy til o'qitish metodikasi, og'zaki nutq, auditoriya muloqoti.

Kirish. Bugungi oliy ta'lim tizimida talabaning bilimni tayyor shaklda qabul qilishi emas, balki uni muloqot, muhokama, hamkorlik va refleksiya jarayonida egallashi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni ilmiy va innovatsion faoliyatga, zamonaviy kasblar hamda chet tillarni o'rganishga keng jalb etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Bu vazifa xorijiy til ta'limida talabaning real kommunikativ vaziyatlarda mustaqil fikr bildirishi, muloqotga kirishishi va o'z pozitsiyasini asoslay olishi kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni muhim metodik yo'nalish sifatida namoyon etadi.

Zamonaviy xorijiy til ta'limida asosiy e'tibor til birliklarini mexanik takrorlashdan mazmunli muloqotga, an'anaviy o'qituvchi markazli modeldan talabaga yo'naltirilgan yondashuvga, alohida lingvistik mashqlardan esa kontekstga asoslangan kommunikativ vazifalarga ko'chmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabaning kommunikativ faolligi faqat savolga javob qaytarishi bilan emas, balki muloqotni boshlashi, davom ettirishi, boshqalarning fikriga munosabat bildirishi, savol qo'yishi, dalil keltirishi va jamoaviy muhokamada mazmunli ishtirok etishi bilan belgilanadi.

Polilogik muloqot shakllari kommunikativ faollikni kuchaytirishda muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday shaklda talaba o'z fikrini bildiradi, boshqalarning nuqtayi nazarini tinglaydi, unga javob qaytaradi hamda nutqiy

strategiyalarni real kommunikativ vaziyatda sinab ko'radi. Ushbu maqolaning maqsadi polilogik nutq orqali talabalarning kommunikativ faolligini oshirishning metodik imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

Polilogik nutq ikki shaxs o'rtasidagi dialogdan farqli ravishda, bir nechta ishtirokchi o'rtasida yuz beradigan ko'p tomonlama muloqot shaklidir. Bunday muloqotda nutqiy jarayon ko'p yo'nalishli xususiyat kasb etadi: ishtirokchilar bir-biriga savol beradi, fikrni davom ettiradi, e'tiroz bildiradi, qo'llab-quvvatlaydi, izohlaydi va umumlashtiradi. Shu sababli polilogik nutq nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-psixologik, diskursiv va pragmatik jihatdan ham murakkab kommunikativ hodisa hisoblanadi. Xorijiy til o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda polilogik muloqotni shakllantirish lingvist-talabalarni kasbiy va kommunikativ faoliyatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. R.S.Polesyuk ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganuvchi talabalar uchun polilogik muloqotni bosqichma-bosqich shakllantirish masalasini yoritgan bo'lsa, T.Yu.Shevchenko xorijiy tildagi polilogik muloqotni o'rgatish mazmuni, tamoyillari va metodik bosqichlarini asoslab bergan [2; 3]. Har ikki tadqiqotda polilogik nutq talabalarning faqat individual javob berish malakasini emas, balki guruhli muhokamada ishtirok etish, tinglash, aniqlashtirish va fikrni rivojlantirish ko'nikmalarini ham shakllantirishi ta'kidlanadi.

Dialogik pedagogika doirasidagi tadqiqotlar ham polilogik nutqning metodik ahamiyatini kuchaytiradi. R.Alexander dialogik ta'limni tayyor javoblarni uzatish emas, balki o'qituvchi va talabalar nutqi orqali fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuv sifatida izohlaydi [4]. R.M.Gillies kooperativ izlanishga asoslangan ta'lim jarayonida dialogik o'zaro ta'sir talabalarning tushuntirish, dalillash va savol berish faoliyatini kuchaytirishini ko'rsatadi [5]. Demak, polilogik nutq dialogik ta'limning kengaytirilgan shakli bo'lib, unda "o'qituvchi — talaba" juftligi bilan cheklanilmaydi, balki "talaba — talaba — talaba" modeliga asoslangan ko'p subyektlilik muloqot shakllanadi.

So'nggi yillarda kommunikativ til o'qitish, loyihaviy nutq faoliyati, hamkorlikda o'qitish va raqamli vositalar bilan bog'liq tadqiqotlar polilogik nutqni yanada amaliy ahamiyatga ega pedagogik vosita sifatida ko'rsatmoqda. Xususan, kommunikativ yondashuv til o'rganishni grammatik bilimlarni alohida va mexanik tarzda egallashdan ko'ra mazmunli muloqot, hamkorlik asosida fikrni shakllantirish hamda kontekstga asoslangan kommunikativ vazifalarni bajarishga yo'naltiradi [6]. Loyihaviy gapirish faoliyatlari esa talabalarning xulqiy, emotsional, kognitiv va agentiv faolligini kuchaytiradi [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy va metodik xarakterga ega bo'lib, unda polilogik nutqning oliy ta'limda, xususan, xorijiy tilni o'qitish jarayonida talabalarning kommunikativ faolligini oshirishdagi imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til darslarida tashkil etiladigan og'zaki muloqot jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa polilogik nutq asosida talabalarning kommunikativ faolligini rivojlantirishning metodik shartlari, interfaol usullari va baholash mezonlaridan iborat.

Tadqiqotda bir nechta metoddan foydalanildi. Analitik metod yordamida polilogik nutq, kommunikativ kompetensiya,

1-jadval. Polilogik nutqni tashkil etish va baholash mezonlari

Mezon	Mazmuni	Kuzatiladigan ko'rsatkichlar
Ishtirok faolligi	Muhokamada muvazun va maqsadli qatnashish.	Savol, javob, fikrni davom ettirish.
Interaktivlik	Boshqalar fikriga munosabat bildirish.	Aniqlashtirish, qo'shimcha kiritish.
Mavzuga moslik va asoslanganlik	Fikrning asoslanganligi va mavzuga mosligi.	Dalil, misol, taqqoslash, xulosa.
Til vositalari	Leksik, grammatik va diskursiv vositalar.	Diskurs markerlari, kelishuv/e'tiroz formulalari.
Hamkorlik madaniyati	Hurmat, tinglash va nutqiy navbat.	Bo'lmaslik, qo'llab-quvvatlash, umumlashtirish.

dialogik pedagogika va hamkorlikka asoslangan ta'limga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Qiyosiy metod orqali an'anaviy savol-javob modeli, dialogik muloqot va polilogik muloqotning metodik farqlari aniqlashtirildi. Umumlashtirish metodi mavjud nazariy qarashlar va zamonaviy tadqiqot natijalarini yagona metodik tizimda talqin qilish imkonini berdi. Metodik modellashtirish metodi asosida polilogik nutqni tashkil etishning bosqichlari, vazifalari, rollari va baholash mezonlari ishlab chiqildi. Tadqiqot ishonchiligi mavzuga oid mahalliy va xorijiy manbalarni tahlil qilish, polilogik nutqni aniq metodik model sifatida talqin etish hamda baholash mezonlarini kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, diskursiv, strategik, pragmatik va sotsiolingvistik jihatlari bilan bog'lash orqali ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, polilogik nutqning kommunikativ faollikka ta'siri, avvalo, darsdagi nutqiy ishtirok imkoniyatlarini kengaytirishi bilan izohlanadi. An'anaviy savol-javob shaklida muloqot asosan o'qituvchi va bitta talaba o'rtasida amalga oshadi, qolgan talabalar esa ko'proq tinglovchi yoki kuzatuvchi maqomida qoladi. Polilogik modelda esa talabalar o'rtasida fikr almashish faollashadi, nutqiy ishtirok doirasi kengayadi va ular bevosita o'zaro muloqotga kirishadi. Natijada auditoriyada o'qituvchi boshqaruvdagi bir tomonlama kommunikatsiya emas, balki barcha ishtirokchilarni qamrab oluvchi ko'p tomonlama muloqot muhiti yuzaga keladi.

Ikkinchi muhim natija shuki, polilogik nutq ma'noni hamkorlik asosida shakllantirish imkonini beradi. Talaba tayyor javobni takrorlamaydi, balki fikrni muloqot jarayonining o'zida yaratadi, boshqa talabalar fikri bilan solishtiradi, e'tiroz bildiradi va umumlashtiradi. Bunday muhitda nutq faqat til mashqi emas, balki tafakkurni shakllantirish vositasiga aylanadi. Kooperativ o'qitish bo'yicha tadqiqotlar ham tengdoshlar yordami va guruhli o'zaro ta'sir talabalarning ta'limga jalb etilganligini kuchaytirishini ko'rsatadi [9].

Uchinchi natija psixologik xavfsizlik va motivatsiya bilan bog'liq. Polilogik nutq to'g'ri tashkil etilganda talaba xato qilishdan qo'rqish o'rniga o'z fikrini sinab ko'rishga intiladi. Kichik guruh, juftlik, "Aquarium" metodi, davra suhbat va loyiha himoyasi kabi shakllar talaba uchun nisbatan xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muloqot maydonini yaratadi. Bu esa ayniqsa tortinchoq talabalarni nutqiy faoliyatga jalb qilishda muhimdir.

Polilogik nutqni rivojlantiruvchi metodlar orasida debat alohida o'rin tutadi. Debat talabalarni dalil keltirish, qarshi fikrni tinglash, e'tiroz bildirish, murosali pozitsiya topish va nutqiy strategiyalarni real vaqt rejimida qo'llashga o'rgatadi. "Aquarium" metodi esa ichki doiradagi faol muhokama va tashqi doiradagi kuzatuv-tahlilni birlashtirib, nafaqat nutqiy, balki refleksiv kompetensiyani ham rivojlantiradi [8]. Keystadi, davra suhbat, "jigsaw discussion", rolli o'yin va loyiha himoyasi ham ko'p tomonlama muloqotni tabiiy ravishda yuzaga keltiradi. Ularning umumiy jihati shundaki, talabalar bir vaqtning o'zida axborot almashadi, muammoni birgalikda tahlil qiladi va qaror ishlab chiqadi. Dialogik dars bo'yicha tadqiqotlar ham aynan mulohaza yuritish, muhokama qilish, tushuntirish va dalillash kabi faoliyatlarni kuchaytiradigan topshiriqlar yuqori pedagogik samara berishini ko'rsatadi.

Jadvaldan ko'rinadiki, polilogik nutqni baholashda faqat grammatikaning to'g'riligini asosiy mezon sifatida olish yetarli emas. Talabani muloqotga kirishishi, boshqalar fikriga javob qaytarishi, fikrni dalillashi, diskursiv vositalardan foydalanishi va hamkorlik madaniyatiga rioya qilishi birgalikda baholanishi lozim. Bu yondashuv kommunikativ kompetensiyaning real nutqiy vaziyatda namoyon bo'lishiga mos keladi.

Raqamli texnologiyalar polilogik nutq imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Masofaviy muloqot vositalari, virtual kichik guruh xonalari, forumlar, onlayn doskalar, umumiy hujjatlar, audio-video yozuvli topshiriqlar va kollaborativ platformalar talabalar uchun qo'shimcha kommunikativ muhit yaratadi. Tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasi, ma'no bo'yicha muzokara strategiyalari va muloqotga kirishish tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [7]. Biroq texnologiyaning o'zi yetarli emas, chunki uning samaradorligi rollar, vazifa, vaqt, kutilayotgan natija va baholash mezonlarining metodik jihatdan aniq belgilanishiga bog'liq.

Tahlil natijalari polilogik nutqni tashkil etishda bir qator metodik shartlarga amal qilish zarurligini ko'rsatadi. Birinchidan, muhokama qilinadigan masala talabalarda shaxsiy pozitsiya va kommunikativ ehtiyoj uyg'otishi kerak. Ikkinchidan, erkin muloqot strukturaviy tayanch bilan uyg'unlashishi lozim: rollar, vaqt chegarasi, nutqiy iboralar banki, baholash mezonlari va yakuniy mahsulot aniq belgilanishi zarur. Uchinchidan, o'qituvchi fasilitator sifatida nutqiy navbatlarni teng taqsimlaydi, sust talabalarni jalb qiladi, dominant ishtirokchilarni muvozanatlashtiradi va muhokamani mavzu doirasida ushlab turadi. To'rtinchidan, xatoni rivojlanish manbai sifatida qabul qiladigan xavfsiz va inklyuziv muloqot muhiti yaratilishi zarur.

Amaliy jihatdan polilogik nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadga muvofiq: avval juftlikda qisqa fikr almashish, keyin kichik guruhda muhokama, so'ng butun auditoriya ishtirokidagi umumlashtiruvchi bahs tashkil etiladi. Dars boshida I agree with..., I partly disagree because..., Could you clarify..., From another perspective..., Let me add..., In our group we think... kabi tayanch iboralar berilishi kommunikativ to'siqlarni kamaytiradi. Guruh ichida moderator, umumlashtiruvchi, dalil keltiruvchi, muqobil fikr bildiruvchi, vaqt nazoratchisi va hisobotchi kabi rollarni taqsimlash talabalar agentivligini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, polilogik nutqni joriy etishda ayrim muammolar ham kuzatiladi. Ayrim talabalar haddan tashqari

faol bo'lib, boshqalarga imkon bermasligi mumkin. Bu holat rollar va vaqt limiti orqali tartibga solinadi. Lug'at boyligi yetishmasa, oldindan leksik tayyorgarlik, terminlar banki va model iboralar bilan ishlash zarur. Xato qilishdan qo'rqish mavjud bo'lsa, o'qituvchi dastlabki bosqichlarda ravonlik va muloqotga kirishish faolligini formal to'g'rilikdan ustun qo'yishi maqsadga muvofiq. Baholash murakkab bo'lsa, kuzatuv jadvali, audio-video yozuv, o'zaro baholash va refleksiv savollardan foydalanish samarali natija beradi.

Xulosa va takliflar. Talabalarining kommunikativ faolligini rivojlantirish zamonaviy xorijiy til ta'limining ustuvor metodik vazifalaridan biridir. Ushbu vazifani hal etishda polilogik nutq alohida didaktik va metodik qiymatga ega. U talabani passiv tinglovchidan faol suhbatdoshga, tayyor javob beruvchidan hamkorlik asosida ma'no hosil qiluvchi subyektaga aylantiradi. Polilogik muloqot davomida talabalar tinglash, savol berish, dalil keltirish, e'tiroz bildirish, murosaga kelish, umumlashtirish va nutqiy strategiyalarni vaziyatga mos ravishda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada olib borilgan tahlil polilogik nutq samaradorligi o'quv vazifalarining mazmunan boy va kommunikativ jihatdan muammoli tashkil etilishi, talabalar faoliyatini yo'naltiruvchi aniq metodik tayanchlarning mavjudligi, o'qituvchining fasilitatorlik roli, muloqot uchun qulay psixologik muhit, ishtirokchilar o'rtasida rollarning oqilona taqsimlanishi, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish hamda baholash mezonlarining kompleks qo'llanishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Debat, "Aquarium" metodi, keys-stadi, davra suhbat, loyiha himoyasi hamda kollaborativ raqamli topshiriqlar polilogik nutqni rivojlantirishda samarali interfaol metodlar sifatida qo'llaniladi.

Xorijiy til darslarida har bir mavzu doirasida polilogik muhokamani yuzaga keltiruvchi muammoli savollarni tanlash, talabalar uchun nutqiy tayanch iboralar bankini shakllantirish, hamkorlikdagi faoliyatda rollarni aniq taqsimlash, har bir mashg'ulotdan so'ng refleksiya tashkil etish hamda baholash jarayonida ishtirok faolligi, interaktivlik, fikrning asoslanganligi, til vositalaridan foydalanish va hamkorlik madaniyatini kompleks hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan, oliy ta'limda polilogik nutqni tizimli qo'llash talabalarining nafaqat til ko'nikmalarini, balki fikrlash madaniyati, ijtimoiy hamkorlikka tayyorligi va kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Полесюк Р.С. Обучение иноязычному полилогическому общению студентов лингвистических специальностей: английский язык как второй иностранный, языковой вуз: дисс. канд. пед. наук. 2007.
3. Шевченко Т.Ю. Обучение иноязычному полилоговому общению студентов-лингвистов: дис. ... канд. пед. наук. - Пятигорск, 2008. - 157 с.
4. Alexander R. Developing dialogic teaching: genesis, process, trial // Research Papers in Education. - 2018. - Vol. 33, No. 5. - P. 561-598. DOI: 10.1080/02671522.2018.1481140.
5. Gillies R.M. Dialogic Teaching during Cooperative Inquiry-Based Science: A Case Study of a Year 6 Classroom // Education Sciences. - 2020. - Vol. 10, No. 11. - Article 328. DOI: 10.3390/educsci10110328.
6. Chen Y., Yin H., Ornia M.G.F. The application of Communicative Language Teaching in English education at Chinese universities // Frontiers in Education. - 2026. - Vol. 11. - Article 1762227. DOI: 10.3389/educ.2026.1762227.
7. Hasyim R., Noni N., Nur S. ICT tools in intercultural communication pedagogy: their impact on speaking competence and meaning negotiation // Frontiers in Education. - 2026. - Vol. 10. - Article 1742910. DOI: 10.3389/educ.2025.1742910.
8. Koval O.I., Lyamina E.A., Merzlyakova A.V., Solovyova O.B. The didactic potential of the Aquarium method in teaching polylogical foreign language speech // Pedagogical Education. - 2024. - Vol. 5, No. 4. - P. 55-59.
9. Li H. Impact of collaborative learning on student engagement in college English programs // Frontiers in Psychology. - 2025. - Vol. 16. - Article 1525192. DOI: 10.3389/fpsyg.2025.1525192.
10. Zhong J., Ismail L., Lin Y. Investigating EFL students' engagement in project-based speaking activities // Frontiers in Psychology. - 2025. - Vol. 16. - Article 1598513. DOI: 10.3389/fpsyg.2025.1598513.